



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal

**2026-YIL / SENTABR /
9-SON, III-QISM**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, sentabr.
III-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

DUAL TA'LIM ASOSIDA TEXNIKA FANLARINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: ELEKTR ENERGETIKASI TA'LIMI MISOLIDA.....	14
Zoxidov Ikboljon Zokirjonovich	
KICHIK BIZNESDA RAQAMLI MARKETING VOSITALARINING SAVDO HAJMINI OSHIRISHDAGI IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	20
Raxmonova Feruza Musakulovna	
MOLIYALASHTIRISHDA DAVLAT ARALASHUVINING IQTISODIY ASOSLARI	27
Yerjanov Shohrux Kabil o'g'li	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ РИСКОВ НА ПРОДОВОЛЬСТВЕННУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	34
Нуруллаева Гулнара Коптлеуовна	
KORPORATIV BOSHQARUVDA NOMOLIYAVIY HISOBOT TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	39
Akmaljon Valijonov	
BYUDJET TASHKIOTLARIDA DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARINING HISOB, NAZORAT VA ICHKI AUDIT OBYEKTI SIFATIDAGI IQTISODIY MAZMUNI	43
Abdulazizov Aziz Anvar o'g'li	
MAMLAKATIMIZ KOMPANIYALARI BOSHQARUV JARAYONLARIDA RAQAMLI TEKNOLOGIYALARDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI MUAMMOLAR.....	49
To'ychiboyev Nozimjon Soliyevich	
TIJORAT BANKLARIGA KAPITAL BOZORI ORQALI INVESTITSİYALARNI JALB QILISH YO'LLARI.....	58
Qurbonova Vazira Ravshan qizi	
MEVA-SABZAVOTCHILIK KOOPERATSIYALARINI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMINI BAHOLASHNING INSTITUTIONAL-MOLIYAVIY INTEGRAL INDEKSI	62
Bobojonova Shahnoza Otaxonovna	
DUNYODA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING ZAMONAVIY STRATEGIYALARI	69
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ УПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЕМ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ НА РЕГИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ: СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ И ВОЗМОЖНОСТИ АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	73
Муминжонов Анварбек Сайфитдин угли	
ANSWERING BUYER CARBON-DATA REQUESTS: A MINIMUM ACCOUNTING CONTOUR FOR SECOND-TIER EXPORTERS IN EMERGING ECONOMIES.....	82
Mukhammadiyaminova Shakhzoda Sherzodovna	
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA TA'MINOT ZANJIRINI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	89
No'manov Javoxir Olimjon o'g'li	
ПРИМЕНЕНИЕ МЕТОДОВ ДЕГУРВА И ГЛОБАЛЬНОГО СЛОЯ НАСЕЛЁННЫХ ПУНКТОВ ПРИ КЛАССИФИКАЦИИ ТЕРРИТОРИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ПО СТЕПЕНИ УРБАНИЗИРОВАННОСТИ	96
Салимова Юлдуз Исаковна	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING HUDUDII SAMARADORLIGINI BAHOLASH: RAQAMLI INFRASTRUKTURA VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK.....	105
Suyunov Shohzodbek Murod o'g'li	



O'ZBEKISTON MINTAQALARINING IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI KOMPLEKS BAHOLASH VA HUDUDLARARO TAFOVUTLARNI ANIQLASH.....	112
Ismatov Fazliddin Ibodovich	
QURILISH SOHASIDAGI KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI.....	117
Yunusov Abduvoxid Abdukarimovich	
ЭКОНОМЕТРИЧЕСКОЕ МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭКОНОМИКИ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	124
Рахмонов Мирвохид Ражабович	
ADVANCING SUSTAINABLE AND GREEN ECONOMY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN THROUGH BILATERAL CARBON CREDITING MECHANISMS.....	133
Dilfuza Arifkhodjaeva	
Gulchekhra Nematullayeva	
Bakhtiyor Pulatov	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT XARIDLARINI TASHKIL ETISHNING AMALDAGI MEKANIZMI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	141
Kurbonbekov Sardorbek Ravshanovich	
O'ZBEKISTON BANLARINIGKING YASHIL BANK MAHSULOTLARI TASHKIL QILISH MEKANIZIMLARI VA ULARNING BANK IQTISODIY SAMARADORLIGINI SALBIY TA'SIR QILMAGAN HOLATDA MAHSULOTLARINING MOLIYAVIY BARQARORLIK TA'MINLASH YO'LLARI.....	150
Nuriddinov Murodjon Nuriddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ СОЦИАЛЬНОЙ ЗАЩИТЫ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	156
Асомиддинова Музайянхон Абдурахмон кизи	
AHOLI TURMUSH FAROVONLIGI VA KAMBAG'ALLIK KATEGORIYALARINING NAZARIY-METODOLOGIK EVOLYUTSIYASI HAMDA ZAMONAVIY BOSHQARUV KONSEPSIYALARI.....	164
Negmatullayeva Zarina Baxodirovna	
IQTISODIYOTDA OZIQ-OVQATNI RIVOJLANTIRISH VA QISHLOQ XO'JALIGINING ROLI.....	171
Siddiqov Zoxid Tulkunovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARINING KOMPLEKS IQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASH VA MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	178
Madrahimova Onajon Javlon qizi	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINING YUQORI MALAKALI KADRLARGA BO'LGAN TALABINI SAMARALI QONDIRISHDA OLIY VA PROFESSIONAL TA'LIM INTEGRATSIYASINI TA'MINLASH ZARURIYATI.....	184
Nizamov Aslitdin Badreddinovich	
SUDLARNI MOLIYAVIY JIHATDAN BOSHQARISHNING XUSUSIYATLARI.....	191
Toshev Yigitali Boboqulovich	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA MOLIYAVIY HISOBOT AXBOROTLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA KOMPILYATSIYA QILISH SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	197
Bekberganova Farangiz Birodar qizi	
TOROID O'ZAKLI TO'G'RI CHIZIQLI HARAKAT IJRO ELEMENTINI DOIMY MAGNIT VA CHULG'AMNING O'ZARO TA'SIRI ASOSIDA ELEKTROMAGNIT KUCH HOSIL BO'LISH JARAYONINI TADQIQ ETISH.....	202
Abdullayev Mahmudjon Muxammedovich	
НАЦИОНАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ СИСТЕМНОГО МОНИТОРИНГА И УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ УСЛУГАМИ В РЕГИОНАХ.....	214
Якубов Н.А.	
TIJORAT BANKLARIDA INVESTITSIYA LOYIHALARINI KREDITLASH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	221
Bauyetdinov M.J.	
Rustamova A.B.	



ЦЕНОВАЯ ПОЛИТИКА КАК ИНСТРУМЕНТ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИТНЕС-КЛУБОВ В УСЛОВИЯХ КОНКУРЕНЦИИ	226
Соловьева Фарангиз Анваровна	
AQSHDA XUSUSIY TIBBIY XIZMATLAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH IQTISODIY MEKANIZMI AMAL QILISH XUSUSIYATLARI	232
To'xtayev Umidjon Shuhrat o'g'li	
XIZMATLAR SEKTORI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY MEZONLARI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	237
Tursunova Shahlo Sayfillayevna	
DAVLAT SEKTORIDA KADRLAR TAQSIMOTINING TAHLILI	243
Xodjayev Furkat Salimovich	
ПОВЫШЕНИЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ КОНТЕЙНЕРНЫХ ПЕРЕВОЗОК ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНЫМ ТРАНСПОРТОМ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	249
Ахмедова Дилафруз Муратовна	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA RAQAMLI TAFOVUT VA DAROMADLAR TENGSIZLIGINING KONVERGATSIYA HAMDA DEKOMPOZITSION TAHLILI	258
Murotjonova Mubina Dilshod qizi	
TURISTIK FIRMALARDA RAQAMLI MARKETING TEXNOLOGIYALARINING XORIJIY TURISTLARNI JALB QILISH SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	267
Tolibova Aziza To'liqin qizi	
THEORETICAL AND PRACTICAL ISSUES OF ENERGY COST ACCOUNTING IN INDUSTRIAL ENTERPRISES	274
Ergasheva Maftuna Asad kizi	
INSON RESURLARINI BOSHQARISH KONSEPSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA UNING MEHMONXONA BIZNESI KORXONALARIDAGI NAMOYON BO'LISHI	282
Narzullayeva Sarvinoz Askar qizi	
QURILISH KORXONALARI EKSPORT FAOLIYATINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEKANIZMINING TARKIBIY ELEMENTLARI VA AMAL QILISH TAMOYILLARI	290
Mirzayeva Xulkar Abduladjon qizi	
SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIYOTINING TARKIBIY BARQARORLIGI: EVOLYUTSION CHIDAMLILIK VA TARMOQLARARO BOG'LIQLIKNING EKONOMETRIK BAHOSI	297
Xuramov Suxrob Abdusamad o'g'li	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ТРАНСФОРМАЦИЮ СТРАТЕГИЧЕСКОГО МЕНЕДЖМЕНТА ОРГАНИЗАЦИЙ	304
Адилова Сакина	
OLIJ TA'LIM TIZIMINI MOLIJALASHTIRISHDA DAVLAT BUDJETINING ROLI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	310
M.M. Tashhodjaev	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING OLIJ TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA KELGUSIDAGI TA'SIRLARI	316
Qarshiyev Sherzodbek Bahromovich	



SUN'IY INTELEKT TEXNOLOGIYALARINING OLIY TA'LIM TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA KELGUSIDAGI TA'SIRLARI

Qarshiyev Sherzodbek Bahromovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

ORCID: 0009-0002-2016-2210

E-mail: qarshiyevsherzod777@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining oliy ta'lim tizimidagi o'rni va kelgusidagi ta'sirlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda YUNESKO hisobotlari, EDUCAUSE, HEPI va Digital Education Council so'rovlaridan foydalanildi. Natijalar talabalar orasida generativ SI dan foydalanish 2024–2025-yillarda 86–88 foizga yetganini ko'rsatdi. Muallif SI ning ta'lim sifatiga ta'siri pedagogik dizayn va akademik halollik me'yorlari bilan uyg'unlashtirilgandagina samarali bo'lishi mumkinligini ta'kidlaydi. Ilmiy yangiligi — xalqaro ko'rsatkichlar O'zbekiston normativ bazasi bilan uyg'unlashtirilib, umumlashtirilgan baholash sxemasi taklif etilgani bilan ifodalanadi. Maqolada oliy ta'lim muassasalari uchun amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, oliy ta'lim, adaptiv ta'lim, generativ SI, raqamlashtirish, akademik halollik, shaxsiylashtirilgan o'quv trayektoriyasi.

Аннотация: В статье анализируется роль технологий искусственного интеллекта (ИИ) в системе высшего образования и их будущее влияние. Используются доклады ЮНЕСКО, опросы EDUCAUSE, HEPI и Digital Education Council. Результаты показали, что доля студентов, использующих генеративный ИИ, в 2024–2025 годах достигла 86–88%. Автор отмечает, что эффективность ИИ обеспечивается лишь при согласовании с педагогическим дизайном и нормами академической честности. Научная новизна заключается в согласовании международных показателей с нормативной базой Узбекистана. Представлены практические рекомендации для вузов.

Ключевые слова: искусственный интеллект, высшее образование, адаптивное обучение, генеративный ИИ, цифровизация, академическая честность.

Abstract: This article analyzes the role of artificial intelligence (AI) technologies in the higher education system and their future impact. UNESCO reports and EDUCAUSE, HEPI, and Digital Education Council surveys were used. The results showed that the share of students using generative AI reached 86–88 percent in 2024–2025. The author argues that the effectiveness of AI is ensured only when it is aligned with pedagogical design and academic integrity standards. The scientific novelty lies in harmonizing international indicators with the regulatory framework of Uzbekistan. Practical recommendations for higher education institutions are presented.

Key words: artificial intelligence, higher education, adaptive learning, generative AI, digitalization, academic integrity, personalized learning trajectories.

KIRISH

Bugungi kunda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari ta'lim tizimining barcha bosqichlarida, xususan, oliy ta'limda jadal sur'atlar bilan joriy etilmoqda. SI texnologiyalari — mashinaviy o'qitish, tabiiy tilni qayta ishlash, generativ modellar hamda adaptiv o'quv platformalari — oliy ta'limni modernizatsiya qilishning muhim omili vazifasini bajaradi [1]. SI ning ta'limdagi o'ziga xos xususiyati shundaki, u nafaqat o'quv jarayonini avtomatlashtiradi, balki shaxsiylashtirilgan o'quv trayektoriyalarini shakllantirish, bilimlarni real vaqt rejimida baholash, ma'muriy qarorlar qabulini tizimlashtirish hamda ilmiy tadqiqotlarni tezlashtirish bo'yicha ham keng qamrovli imkoniyatlar taqdim etadi [2].

O'zbekistonda ham ushbu yo'nalish davlat siyosati darajasida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son¹ Farmoni bilan tasdiqlangan "Raqamli O'zbekiston

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>



— 2030” strategiyasida raqamli ta’lim va raqamli kadrlar tayyorlash ustuvor yo’nalish sifatida belgilangan [3]. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-358-son² qarori bilan “Sun’iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi” tasdiqlandi [4], 2025-yil 22-oktabrdagi “Sun’iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PF-189-son³ Farmoni esa ushbu strategiyani jadallashtirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlarni nazarda tutdi [5]. So’nggi yillarda dunyodagi oliy ta’lim muassasalarida SI dan foydalanish ko’lami sezilarli darajada kengaydi: 2024-yilda talabalarning 86 foizi o’qish jarayonida SI vositalaridan foydalanmoqda [6], 2025-yilga kelib baholash vazifalarida generativ SI dan foydalanish 88 foizga yetgan [7]. Bu esa SI ning oliy ta’lim tizimidagi roli va kelgusidagi ta’sirlarini ilmiy jihatdan tahlil qilishni dolzarb mavzuga aylantiradi. Tadqiqotning maqsadi — SI ning oliy ta’lim jarayonlariga integratsiyasi dinamikasini ochiq ma’lumotlar asosida baholash, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo’yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlilini o’tkazish jarayonida mahalliy va xorijiy olimlarning tadqiqotlari o’rganilib, ularga muallifning ilmiy munosabati ifodalandi.

Mahalliy olimlardan M.S. Salixova raqamli transformatsiya sharoitida SI texnologiyalarining ta’lim tizimiga integratsiyalashuvi va uning ta’lim jarayonidagi o’rni tahlil qilib, global miqyosda SI dan foydalanishning o’sishi davom etayotganini qayd etadi [8]. Ushbu fikrga to’liq qo’shilaman, chunki xalqaro so’rov ma’lumotlari ham ayni shu tendensiyaning tasdiqlaydi [6; 7]. M.E.Q. Berdiqulova SI yordamida o’quv jarayonini shaxsiylashtirish va ta’lim sifatini oshirish masalalarini ilmiy nuqtai nazardan yoritadi [9]. Muallifning shaxsiylashtirishga urg’u berishiga qo’shilaman, biroq bu jarayonning infratuzilma va malakali kadrlar talab qilishini qo’shimcha ta’kidlash zarur deb hisoblayman. I.M. Kurbonova sun’iy intellekt o’quvchilarning bilim darajasi, qiziqishi va o’zlashtirish tezligini tahlil qilib, har bir o’quvchi uchun mos ta’lim yo’nalishini taklif etishini, ayni paytda SI ning kamchiliklari ham mavjudligini ta’kidlaydi [10]. Ushbu muvozanatli yondashuvga qo’shilaman: SI ning imkoniyatlari bilan birga xatarlarini ham ko’rish ilmiy obyektivlik talabidir. F.S. Sadikova SI texnologiyalari yordamida turli rivojlanish darajasidagi o’quvchilar, jumladan, nogironligi bo’lganlarning kengroq qamrab olinishini inklyuziv ta’lim muhim jihati sifatida ko’rsatadi [11]. Bu yo’nalishni oliy ta’lim uchun ham istiqbolli deb baholayman, zero SI ning inklyuziya imkoniyatlari hali yetarli o’rganilmagan soha hisoblanadi.

Xorijiy olimlardan H. Crompton va D. Burke 2016–2022-yillarda e’lon qilingan 138 ta tadqiqot asosida SI ning oliy ta’limdagi holatini tizimli tahlil qilib, SI dan o’qitish, o’rganish, baholash va ma’muriy jarayonlarda foydalanish kengayayotganini, ammo etik masalalar va dalillarga asoslangan amaliyot hali yetarli rivojlanmaganini ko’rsatadi [12]. Ushbu xulosaga to’liq qo’shilaman: mening tahlilim ham etika va akademik halollik me’yorlarining shakllanishini asosiy muammo sifatida aniqladi. M. Bond va hammualliflari meta-tizimli sharhida SI ning oliy ta’limdagi qo’llanilishida axloqiy jihatlar, hamkorlik va tadqiqot qat’iyligini oshirish zarurligini ta’kidlaydi [13]. Bu fikrga cheklangan holda qo’shilaman: mualliflar ko’proq metodologik qat’iyligni talab etsa, biz amaliyotda birinchi navbatda muassasa darajasidagi SI siyosatini shakllantirish ustuvor ekanligini hisobga olish kerak deb hisoblayman. O. Zawacki-Richter va hammualliflari oliy ta’limda SI qo’llanilishiga oid tadqiqotlarni tizimli sharhlash orqali erta ogohlantirish tizimlari, intellektual o’quv tizimlari va baholash yo’nalishlarini ajratib ko’rsatgan [14]. Ushbu tasnif bugungi kungacha o’z dolzarbligini saqlab kelmoqda, biroq so’nggi yillardagi generativ SI ning jadal rivoji yangi yo’nalishlarni ham qo’shishni talab qiladi. E. du Plooy va M. Rhodes oliy ta’limdagi adaptiv (shaxsiylashtirilgan) o’quv tizimlariga oid tizimli adabiyotlar sharhida bunday tizimlarning o’quv natijalariga musbat ta’sirini qayd etadi [15]. Bu fikr meta-tahlil ma’lumotlari bilan tasdiqlandi [16], shu bois uni ilmiy dalillarga tayangan deb baholayman. Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlarda SI ning o’quv natijalariga ta’sirini milliy kontekst — O’zbekiston oliy ta’limi misolida miqdoriy baholash masalasi yetarlicha o’rganilmagan bo’lib, mazkur maqola ana shu bo’shliqni to’ldirishga qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, guruhlash, statistik dinamik qatorlar hamda SWOT-tahlil usullaridan foydalanilgan. Axborot bazasi sifatida YUNESKOning ta’limdagi generativ SI bo’yicha qo’llanmasi [1], O’zbekiston Respublikasi Prezidentining me’yoriy-huquqiy hujjatlari [3–5], xalqaro so’rovlar va tahlil hisobotlari — EDUCAUSE, HEPI, Digital Education Council [6; 7; 17; 18], Nature va ScienceDirect jurnallarida e’lon qilingan tadqiqot ishlari [19; 20], mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari [8–16] xizmat

² <https://lex.uz/docs/-7158604>


³ <https://lex.uz/uz/docs/-7789403>



qildi. Tahlil qamrovi 2024–2025-yillar so'rov natijalarini o'z ichiga oladi; foydalanish darajasi dinamikasi 2024 va 2025-yillarning yakuniy holatlari kesimida qiyoslangan.


TAHLIL VA NATIJALAR

Talabalar o'rtasida SI dan foydalanish dinamikasi. HEPI tomonidan o'tkazilgan 2025-yilgi so'rov natijalariga ko'ra, baholash vazifalarida generativ SI dan foydalanayotgan talabalar ulushi 2024-yilgi 53 foizdan 2025-yilda 88 foizga ko'targani aniqlangan; ChatGPT eng ommabop vosita bo'lib qolayotgani qayd etilgan [7]. Digital Education Council tomonidan 16 mamlakatdagi 3 839 talaba o'rtasida o'tkazilgan global so'rovda talabalarning 86 foizi o'qish jarayonida SI dan foydalanayotgani, 54 foizi haftada kamida bir marta foydalanayotgani aniqlangan; eng ko'p qo'llaniladigan vositalar qatoriga ChatGPT (66 foiz), Grammarly va Microsoft Copilot (har biri 25 foiz) kirgan [6]. Global tahlilda dunyo bo'ylab 70 foizdan ortiq talabani ChatGPT dan foydalanayotgani, rivojlangan mamlakatlarda ushbu ko'rsatkich 74 foizga yetgani ta'kidlangan [20] (1-rasm).



1-rasm. Talabalar va o'qituvchilarning SI vositalaridan foydalanish darajasi⁴ (2024–2025-yy., foizda)

Rasmdan ko'rinib turibdiki, 2024-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davrda baholash vazifalarida generativ SI dan foydalanish 53 foizdan 88 foizgacha, ya'ni qariyb 1,7 barobar oshgan — bu o'sish bir yil ichida ro'y bergani bilan boshqa texnologik innovatsiyalarning tarixiy dinamikasidan keskin farq qiladi (2-rasm).



2-rasm. Baholash vazifalarida generativ SI dan foydalanish dinamikasi (2024–2025-yy., foizda)⁵


O'qituvchilar va muassasalar darajasidagi ko'rsatkichlar. EDUCAUSE ning 2025-yilgi AI Landscape Study hisobotiga ko'ra, o'qituvchilarning 57 foizi SI ni muassasa strategik ustuvorligi deb hisoblaydi, bu 2024-yildagi 49 foizga nisbatan sezilarli o'sishdir [17]. Muassasalarning yarmidan ko'pi o'quv dasturlarini loyihalashda (54 foiz) va ma'muriy jarayonlarni avtomatlashtirishda SI dan foydalanmoqda [18]. EDUCAUSE ning keyingi tahlilida o'qituvchilarning 63 foizi o'quv faoliyati yoki baholash materiallarini tayyorlashda SI vositalaridan foydalanayotgani, foydalanuvchilarning yarmiga yaqini mustaqil fikrlash qobiliyatining yo'qolishidan xavotirda

⁴ Manba: HEPI, Digital Education Council, EDUCAUSE va ScienceDirect ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁵ Manba: HEPI (2025) so'rovi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.



ekanligi ham qayd etilgan [19]. Nature jurnali tomonidan 5 000 dan ortiq tadqiqotchi o'rtasida o'tkazilgan so'rovda ilmiy yozuvlarda generativ SI dan foydalanish borasida ilmiy jamoatchilik fikri bo'lingani aniqlandi [21] (3-rasm).




3-rasm. Muassasalar va o'qituvchilar darajasida SI ni qabul qilish ko'rsatkichlari (2024–2025-yy., foizda)⁶

SI ning o'quv natijalariga ta'siri bo'yicha ilmiy dalillar. Heliyon jurnalida e'lon qilingan tizimli tahlil natijalariga ko'ra, shaxsiylashtirilgan adaptiv o'quv akademik natijalarni tadqiqotlarning 59 foizida oshirgani, talabalar ishtirok etuvchanligini esa 36 foiz tadqiqotda yaxshilagani aniqlangan [15]. Meta-tahlil SI asosidagi adaptiv o'quv tizimlarining talabalarning kognitiv o'quv natijalariga umumiy musbat ta'sir ko'rsatgani qayd etgan [16]. SI ning ta'limdagi qo'llanish yo'nalishlarining umumlashgan tavsifi jadvalda va 4-rasmda keltirilgan (1-jadval; 4-rasm).

1-jadval. Sun'iy intellekt texnologiyalarining oliy ta'limdagi qo'llanish yo'nalishlari va nisbiy ulushi

Qo'llanish yo'nalishi	Taxminiy ulush	Asosiy vositalar va imkoniyatlar
Adaptiv (shaxsiylashtirilgan) ta'lim	30%	Shaxsiylashtirilgan o'quv trayektoriyalari [15; 16]
Baholash va monitoring	25%	Testlarni avtomatik baholash, real vaqt rejimidagi teskari aloqa [1; 6]
Ma'muriy boshqaruv va qarorlar qabuli	20%	Qabul jarayonlari, boshqaruv ma'lumotlarini tahlil qilish [17; 18]
Ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash	15%	Adabiyotlarni tahlil qilish, ilmiy yozuvni tahrirlash [21]
Akademik halollik va boshqa yo'nalishlar	10%	Plagiatni aniqlash, etika bo'yicha siyosat [7; 12]



4-rasm. SI texnologiyalarining oliy ta'limdagi qo'llanish yo'nalishlarining nisbiy ulushi (muallif bahosi), foizda⁷

⁶ Manba: EDUCAUSE (2025; 2026) so'rovlari ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁷ Manba: [1; 6; 15–17; 21] asosida muallif tomonidan tuzilgan.



Oliy ta'lim muassasalarida SI texnologiyalarini joriy etishning SWOT-tahlili. Tahlil natijalarida muassasalarning imkoniyat va xatarlari tizimlashtirildi (2-jadval).

2-jadval. SWOT tahlili⁸

Kuchli tomonlar (S)	Zaif tomonlar (W)
O'quv jarayonini avtomatlashtirish; real vaqt rejimidagi baholash; ma'muriy xarajatlarni qisqartirish	Yagona me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish imkoniyatlari; SI savodxonligini rivojlantirish istiqbollari; infratuzilmani takomillashtirish imkoniyatlari.
Imkoniyatlar (O)	Xatarlar (T)
Shaxsiylashtirilgan ta'lim; ilmiy tadqiqotlarni tezlashtirish; davlat dasturlari bilan uyg'unlik [4; 5]	Akademik halollikka tahdid; ma'lumotlar maxfiyligi xavfi; mustaqil fikrlash pasayishi [12; 19; 21]

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, SI texnologiyalari oliy ta'limni modernizatsiya qilish jarayonida strategik ahamiyatga ega texnologik omil bo'lib xizmat qilmoqda: so'nggi yillarda ularning ta'limdagi qamrovi mos ravishda 53 dan 88 foizgacha (baholash vazifalarida) va 86 foizga (o'qish jarayonida) yetdi. SI ning asosiy qo'llanish yo'nalishlari — adaptiv ta'lim, baholash, ma'muriy boshqaruv va ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash — meta-tahlillar bilan tasdiqlangan musbat samaradorlikka ega. Shu bilan birga, etika, akademik halollik va ma'lumotlarni himoya qilish me'yorlarini yanada takomillashtirish imkoniyatlari mavjud.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. Oliy ta'lim vazirligi tomonidan SI dan ta'limda foydalanish bo'yicha yagona metodik tavsiyalar va baholash siyosatini yanada takomillashtirish hamda talabalar uchun SI savodxonligi modullarini o'quv dasturlariga kiritish;
2. Oliy ta'lim muassasalarida muassasa darajasida SI strategiyasini takomillashtirish, o'qituvchilarni tizimli malaka oshirishni tashkil etish hamda adaptiv o'quv platformalarini bosqichma-bosqich joriy etish;
3. O'qituvchilar tomonidan SI vositalarini darslarni tayyorlashda qo'llab-quvvatlovchi sifatida foydalanish va baholash jarayonida insonga xos nazoratni samarali tarzda saqlab qolish;
4. Talabalar va tadqiqotchilar tomonidan loyihalarni dastlabki bosqichdan SI standartlariga moslashtirilgan holda ishlab chiqish.

Ushbu chora-tadbirlarning kompleks amalga oshirilishi oliy ta'lim muassasalarida SI texnologiyalaridan samaraliroq foydalanish, o'quv natijalarini oshirish va akademik halollik talablarini ta'minlash imkonini beradi. Kelgusi tadqiqotlar uchun SI asosidagi adaptiv ta'lim tizimlarining O'zbekiston oliy ta'limida o'quv natijalariga ta'sirini miqdoriy baholash hamda generativ SI ning akademik halollikka ta'sirini yanada chuqurroq o'rganish istiqbolli yo'nalishlar hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Miao, F. Guidance for generative AI in education and research / F. Miao, W. Holmes. – Paris : UNESCO, 2023. – 94 b. – URL: <https://unesdoc.unesco.org/ark:/48223/pf0000386693>
2. Zawacki-Richter, O. Systematic review of research on artificial intelligence applications in higher education / O. Zawacki-Richter, V. I. Marín, M. Bond, F. Gouverneur // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2019. – Vol. 16, № 39. – URL: <https://link.springer.com/article/10.1186/s41239-019-0171-0>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarori // URL: <https://lex.uz/docs/-7158604>
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 22-oktabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini yanada rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-189-son Farmoni // URL: <https://lex.uz/docs/-7789403>
6. Digital Education Council. Global AI Student Survey 2024. – 2024. – URL: <https://www.digitaleducationcouncil.com>

8 Manba: Muallif ishlanmasi.



7. HEPI. Student Generative AI Survey 2025 / Higher Education Policy Institute. – Oxford, 2025. – URL: <https://www.hepi.ac.uk/reports/student-generative-ai-survey-2025/>
8. Salixova, M. S. Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish dolzarbligi, ahamiyati / M. S. Salixova // CyberLeninka. – 2025. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ta-lim-jarayonida-sun-iy-intellekt-texnologiyalaridan-foydalanish-dolzarbligi-ahamiyati-1>
9. Berdiqulova, M. E. Q. Sun'iy intellektning ta'limga ta'siri / M. E. Q. Berdiqulova // CyberLeninka. – 2026. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellektning-ta-limga-ta-siri>
10. Kurbonova, I. M. Sun'iy intellektning (SI) ta'limdagi o'rni: imkoniyatlari va kamchiliklari / I. M. Kurbonova // CyberLeninka. – 2026. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellektning-si-ta-limdagi-o-rni-imkoniyatlari-va-kamchiliklari>
11. Sadikova, F. S. Inklyuziv ta'limda sun'iy intellektda asoslangan raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishning muhim jihatlari / F. S. Sadikova // CyberLeninka. – 2025. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/inklyuziv-ta-limda-sun-iy-intellektga-asoslangan-raqamli-ta-lim-texnologiyalaridan-foydalanishning-muhim-jihatlari>
12. Crompton, H. Artificial intelligence in higher education: the state of the field / H. Crompton, D. Burke // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2023. – Vol. 20, № 22. – URL: <https://link.springer.com/article/10.1186/s41239-023-00392-8>
13. Bond, M. A meta systematic review of artificial intelligence in higher education: a call for increased ethics, collaboration, and rigour / M. Bond [va b.] // International Journal of Educational Technology in Higher Education. – 2024. – Vol. 21, № 4. – URL: <https://link.springer.com/article/10.1186/s41239-023-00436-z>
14. du Plooy, E. Personalized adaptive learning in higher education: a systematic literature review / E. du Plooy, M. Rhodes // Heliyon. – 2024. – Vol. 10, № 12. – URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S2405844024156617>
15. JCTE. The Efficacy of Artificial Intelligence-Enabled Adaptive Learning Systems on Students' Cognitive Learning Outcomes: A Meta-Analysis // Journal of Computer Technology in Education. – 2025. – URL: <https://journals.sagepub.com/doi/10.1177/07356331241240459>
16. EDUCAUSE. 2025 EDUCAUSE AI Landscape Study. – 2025. – URL: <https://www.educause.edu/ai-landscape-study>
17. EDUCAUSE. The Impact of AI on Work in Higher Education. – 2026. – URL: <https://www.educause.edu/research/2026/the-impact-of-ai-on-work-in-higher-education>
18. GovTech. Survey: Higher Ed AI Adoption Faces Financial, Policy Hurdles. – 2025. – URL: <https://www.govtech.com/education/higher-ed/survey-higher-ed-ai-adoption-faces-financial-policy-hurdles>
19. Nature. How are researchers using AI? Survey reveals pros and cons for science // Nature. – 2025. – 6-fevral. – URL: <https://www.nature.com/articles/d41586-025-00343-5>
20. Amoah, A. ChatGPT early usage among students: a global evidence analysis / A. Amoah // ScienceDirect. – 2025. – URL: <https://www.sciencedirect.com/science/article/abs/pii/S2950524025000253>
21. Ocen, S. Artificial intelligence in higher education institutions: review of innovations, opportunities and challenges / S. Ocen, J. Elasu, S. M. Aarakit, C. Olupot // Frontiers in Education. – 2025. – Vol. 10. – URL: <https://www.frontiersin.org/articles/10.3389/feduc.2025.1530247/full>
22. Campus Technology. Survey: 86% of students already use AI in their studies. – 2024. – URL: <https://campustechnology.com/articles/2024/08/28/survey-86-of-students-already-use-ai-in-their-studies.aspx>
23. Raqamli texnologiyalar vazirligi. Raqamli ta'lim ekotizimini 2025-yil davomidagi rivojlantirish sarhisobi. – 2026. – URL: <https://mininfocom.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 9/3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>